

## **O'ZBEKİSTONDA AYOLLAR BOKSİNİNG RIVOJLANISHI**

*Yusupova Laziza Nodirjon qizi*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Jismoniy madaniyat yo'naliши 2-bosqich talabasi*

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada O'zbekistonda ayollar boksining rivojlanishi va ayollar sportini rivojlantirishga yaratilayotgan shart-sharoitlar haqida yozilgan. Shuningdek mamlakatimizdagi sportchi qizlar haqida va ularning yutuqlariga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** ayollar sporti, boks, talaba qizlar, jahon championati, islohot, jismoniy tarbiya, oila, vatan taraqqiyoti, o'zbek boks tarixi.

Bugun go'zal qizlarimiz va lobar opa-singillarimiz har sohada uzlarini namoyon etishga harakat qilishmoqda. Farzandlariga mehribon ona, oilada yaxshi uy bekasi bo'la olishadi , o'zları sevgan kasb bilan shug'illanishadi. Hatto ular sport musobaqalarida ham ishtirok etib, faxrli natijalarni egallashmoqda. Shuni ham olahida ta'kidlash joizki , xotin-qizlarning muntazam sport bilan shug'ilanishi doim tetik yurishlarida, sog'-salomat bo'lishlarida qolaversa, chiroyli ko'rinishlarida o'z ahamiyatiga ega. Yurtimizda xotin-qizlar sportiga ham katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu e'tibor o'z natijasini ham ko'rsatmoqda . Xususan , sportning boks turi bilan shug'ullanib kelayotgan qizlar o'z g'alabalari bilan o'zbek ayollar boksi tarixida yangi sahifa ochishdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Boksni tanlab nafaqat viloyat va mamlakat ichidagi musobaqalarda balki , jahon miqiyosidagi yrik nufuzli bellashuvlarda ham ishtirok etib yuqori natjalarga erishayotgan qizlarimiz ham ko'p. Yodgoroy Mirzayeva o'zbek ayollar boksi tarixida ilk marotaba Rio-2016 Olimpiadada ishtirok etgan bo'lsa , hozirgi kunda u ochib bergen yangi sahifa qizlarimizning porloq g'alabalari bilan to'ldirilmoqda. Shuni alohida

faxrlanib aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston tarixida ilk bor ishtixonlik qiz Nigina O‘ktomava 2021-yilning 13-23-aprel kunlari Polshaning Kelse shahrida o‘tkazilgan Jahon championatida yoshlar o‘rtasida jahon championi bo‘ldi . Nigina ushbu championatda 54kg vazn toifasida ishtirok etdi va o‘z vaznini barcha raqibalari ustidan ajoyib tarzda g‘alaba qozonib , Vatanimiz sharafini munosib ravishda himoya qildi .

O‘zbek boks tarixida yangi natija qayd etgan Nigina O‘ktamovaga Prezidentimiz tomonidan maxsus sovg‘a –“Nexia-3” avtomobili tantanali tarzda sovg‘a qilindi .

“Yutug‘im mamlakatimda sportga , xususan ayollar boksiga qaratilgan katta e’tiborning samarasidir . Biz yoshlarga ishonch bildirib , barcha sharoitlarni yaratib beroyotganlari uchun mamlakatimiz Prezidentiga , Turizm va sport vazirligiga, Milliy Olimpia qo‘mitasi va albatta, O‘zbekiton boks federatsiyasi hamda murabbiylarimga o‘z minnatdorchiligidagi bildiraman . Ushbu musobaqada biz qizlar boksi ham yigitlarnikidan qolishmasligini ko‘rsatib qo‘ydik!”-dedi champion qiz.

Muhtaram prezidentimiz championimizni tabrikladi va shunday dedi:-“Bu haqda gapirganda yoshlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan dunyo birinchiligidagi o‘zbek qizi Nigina O‘ktamova milliy tariximizda ilk marta xotin-qizlar oradida,,Jahon championi”degan yuksak sharafga ega bo‘lganini faxr bilan tilga olamiz.

Ishonamanki, bu hali boshlanishi, kelgusidaqizlarimiz bundan ham yuksak g‘alabalari bilan jahon boks olamini hayratga soladi, albatta”. 2021-yil 29-aprelda yurtboshimizning “Boksni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori esa yurtimizda boksnii, xususan, ayollar boksnini yangi bosqichda rivojlanishi uchun qoniniy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugun O‘zbekistonda boksnii rivojlantirishga yo‘naltirilgan 266 sport ta’lim muassasalari faoliyat yuritadi. Shundan 230tasi bolalar va o‘smyirlar sport maktabi, 13tasi sportning yakkakurashga ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smyirlar sport maktabi,15tasi ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab internati, 8tasi olimpiya va milliy olimpiya hamda milliy sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan maktab internatlaridir. Boks zallari holatiga to‘xtaladigan bo‘lsak,mamlakatimizda mavjud 209ta sport zalida boks mashg‘ulotlarini tashkil etish mumkin.O‘zbekistondagi 5 ta sport

majmuasida nufuzli boks musobaqalarini o'tkazish uchun zarur sharoitlar bor.Lekin yurtimizda boksga har tomonlama ixtisoslashtirilgan maxsus boks majmuasi mavjud emas. Shu o'rinda Prezidentimiz imzolagan qaror asosida kelgusi 5 yil ichida davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida 7 ta maxsus boks alini tashkil etish belgilangani O'zbekistonning boks rivojlangan yetakchi davlatlardan biri bo'lib qolishiga xizmat qiladi.Zero,yurtimizda boks infratuzilmasini yanada yaxshilash hamda xalqaro talablarga moslashtirish O'zbekistonning jahon miqyisida yuksalishiga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda boks sport turi yanada raqobatdosh,keskin va universal tus olmoqda,shu sababli yuqori malakali bokschilarning tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar ham keskin ortib bormoqda.Bugungi kunda terma jamoamizni xalqaro musobaqalarga yuqori darajada texnik-taktik tayyorlashularning oldinga intilish kuchi,axloqini,aqliy va jismoniy tezkorligini,mehnatsevarlik jihatlarini oshirib,musobaqa muhitiga tayyorlash murabbiylar qarshisidagi asosiy vazifa hisoblanadi.Xo'sh,hozirda ayollar boks terma jamoamizda vaziyat qanday,ularda musobaqalarga tayyorgarlik jarayonlari qay tarzda amalga oshiriladi. Bu haqida terma jamoa bosh murabbiyi Elshod Rasulov quyidagi fikrlarni bildirdi:-“Ma'lumki,bugungi kunda o'zbek boksi jadal suratda rivojlanib bormoqda. Biz musobaqaga tayyorgarlik jarayonlarida muntazam ravishda boshqa davlarlar boks maktabi bilan, xusan, Qozog'iston, Kuba kabilar bilan o'quv yig'in mashg'ulotlari o'tkazib, tajriba almashamiz. Bu esa qizlarimizda yangi ko'nikma va malakani shakllantiradi. Undan tashqari mashg'ulotlarni o'g'il bolalar bilan birqalikda olib boorish qizlarimizning yuqori jismoniy tayyorgarlikda bo'lishiga yordam beradi. Rahbariytimiz tomonidan qizlarimizga farmokoligiya, vitaminizatsiya ta'minlab berilgan. Jamoada biz bilan birqalikda psixolog va fizoterapevtlar ham faoliya yuritishmoqda. Undan tashqari, ichki raqobat haqida gapirar ekanman, hozirda terma jamoamizda 2003-2004-yilarda tug'ilgan Osiyo va Jahon championatlarida yuqori natijalar qayd etgan yosh qizlarimiz ham mavjud.Ular ham hozirda bizning nazoratimiz ostida. Chunki ular kelasi yili Jahon championatida qatnasha olishadi, 2024-yil Parij olimpiadasiga ham yoshi mos keladi va ishtirok etish imkoniyati mavjud bo'ladi.Bu

asosiy tarkibdan tashqar 2-3-raqamli zaxira tarkibi hisoblanadi. Umid qilamanki, qizlarmiz ichki raqobatdan kelib chiqqan holda kelgisi yili bo‘lib o‘tadigan hamda Olimpiada o‘yinlariga yo‘llanma beruvchi Jahon championatida ishtirok etadilar”.

Yurtimizda boksga qaratilgan e’tibor va yaratilgan yuksak sharoitlarning natijasi o‘laroq Tokyo-2020 Olimpiya o‘yinlaridatarixda ilk bor 3 nafar o‘zbek qizi ishtirok etdi.

51kg vazn toifasida ringga ko‘tarilgan vakilamiz ilk jangida polshalik Sandra Drabikadan ustun keldi.Biroq keyingi bosqichda qizimizga biroz omad kulib boqmadi,ikkinchini jangida Tursunoy turkiyalik Busenaz Cakirogluga 3:2 hisobida imkoniyatni boy berib qo‘ydi.

Ilk jangida 5:0 hisobida g‘alaba qozongan Rayxona Qodirova esa keying uchrashuvda o‘z vaznida eng kuchli deya r’tirof etilgan Beatris Ferreyraga qarshi munosib jang o‘tkazdi va afsuski mag‘lubiyatga uchradi.

69 kg vazndagi yana bir yosh bokschimiz Shahnozaxon Yunusova uchun esa ushbu musobaqa kata tajriba maktabi bo‘ldi.

Shu tariqa,o‘zbek ayollar boksi tarixida ilk bor qizlarimiz Olimpiada o‘yinlarida ishtirok etib g‘alaba qozonishdi.

2021-yil 18-25-sentabr kunlari Rossiya Federatsiyasi poytaxti Moskva shahri mezonlik qilgan harbiylar o‘rtasida jahon championatida charm qo‘lqop ustalarimiz 1ta oltin hamda 3ta bronza medallarini qo‘lga kiritdilar.Bulardan 75kg vazndagi Mavluda Mavlonova oltin,51kg Aziza Yokubova,60kg Rayxona Qodirova hamda 69kg vazndagi Navbahor Hamidovalar bronza medali bilan yurtimizga qaytishdi. Yil yakunida o‘tkazilgan ayollar o‘rtasida mamlakat birinchiligi esa kutilmagan vaziyatlarga vakeskin to‘qnashuvlarga boy bo‘ldi.Ayniqsa,musobaqaga chet ellik hakamlar delegatsiyasining taklif etilishi janglarning shaffof tarzda o‘tishini ta’minladi.Chet ellik ekspertlar „Universal” sport saroyida tashkil etilgan O‘zbekiston championatiga har taraflama yuqori baho berdilar. Shu tarzda o‘zbek boksida yana bir zafarlarga boy bo‘lgan 2021-yil o‘z nihoyasiga yetdi.

2022-yil 20-30-yanvar kunlari „Universal” sport saroyi o‘z bag‘riga yana sportchilarni chorladi.U-22 Osiyo championati qit’amizning ayni paytdagi eng kuchli yosh iqtidor egalarini kashf etib berdi.Ushbu musobaqaga Elshod Rasulov boshchiligidagi ayollar terma jamoamiz kuchli tarkib bilan ishtirok etishdi va yakunda qizlarimiz 4 ta oltin,1ta kumush va 2 ta bronza medallariga ega chiqib,umumjamoa hisobida birinchilikni egallashdi. Chinakam Tomaris avlodlari bo‘lgan o‘zbek boks malikalari haqida so‘z borar ekan,boks bo‘yicha 9-20-may kunlari Turkiyaning Istanbul shahrida o‘tkazilgan kattalar o‘rtasida jahon championatida o‘zbekiston vakilalari Aziza Yokubova va Mohira Ahmedovalar tarixda ilk bor jahon championati sovrindorlari qatoridan joy olganliklarini alohida ta’kidlab o‘tishimiz darkor.Bunga qadar kattalar o‘rtasida jahon championatida o‘zbek ayol bokschisi shohsupaga ko‘tarilmagan edi.Ammo ushbu dunyo birinchiligidagi o‘zbekistonlik bokschi qizlar 2ta bronza medalini qo‘lga kiritishdi. Xalqaro Boks federatsiyasining 2022-yilga mo‘ljallangan taqvim rejasiga asosan 31-oktabrdan 12-noyabr kuniga qadar Iordaniya Qirolligi Amman shahrida o‘tkazilgan Osiyo championatida esa ayollar terma jamoamiz 3ta medalni qo‘lga kiritishdi.Bulardan 66kg da Navbahor Hamidova oltin,75kg da Sohiba Ro‘zmetova kumush,48 kg vazn toifasida Farzona Fozilova esa bronza medaliga ega chiqishdi.

Bu keltirilgan ma’lumotlar mamlakatimizda ayollar boksining rivojlanayotganligidan dalolatdir. Shuningdek ayollar sportini yanada rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni ham e’tirof etish joizdir. Endigi maqsad esa biz sportchi qizlar yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, O‘zbekiston bayrog‘ini jahon arenalarida yuqoriga ko‘tarilishida o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak bo‘ladi.